Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	
Milliy qadriyatlar vositasida o'quvchilarni chet tili o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi.....	1209
Toshturdiyeva Xurshida Erkinovna, Elmurodova Dildora Erkinovna	
Talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda individual yondashuvning nazariy asoslari	1212
Islomov Eldor Yusupovich	
Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual imkoniyatlarini diagnostik o'rganish va korreksiyalash metodikasini takomillashtirish	1215
Sattorova Malikaxon Abdug'affor qizi	
Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык	1220
Марупова Дилфуза Давроновна	

Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish.....	1226
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Bahodirova Mohinur Azamat qizi</i>	
Buxoro xonlariga pir bo'lgan Dahbediylar.....	1231
<i>Kandaxarov Anvarjon Xasanovich</i>	
Formativ baholash natijalaridan ta'lim sifatini yaxshilashda foydalanish.....	1236
<i>Mamatova Fazilat Ixtiyorovna, Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi</i>	
Современные тенденции развития в подготовке юных волейболистов с использованием инновационных технологий.....	1239
<i>Имомов Сирожиддин Илхомович</i>	
Современное развитие гандбола, основы технико-тактической подготовки и методика обучения в кружках.....	1244
<i>Оринов Облакул Жумаевич</i>	
Теоретико-методические основы баскетбола и современные тенденции его развития.....	1248
<i>Ачилов Ойбек Хакимович</i>	
O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi: holat, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	1252
<i>Berdiyev Baxtiyor Sodiqovich, Raximjonova Maxliyon Zokirjon qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosida talabalarning dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish.....	1257
<i>Saidov Usmon Bahron o'g'li</i>	
Современные методы устранения заикания у подростков.....	1260
<i>Абдухалимова Муниса Абдурашид кизи</i>	
O'quvchilarda innovatsion yondashuv orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari.....	1264
<i>Xamidova Shaxnoza Nuraliyevna</i>	
Iqtidorli futbolchilarni tanlab olishning nazariy asoslari.....	1268
<i>Salayev Taxirbek Kamiljanovich, Atajanov Adilbek Yuldashevich</i>	
Sun'iy intellektning talabalarda analitik fikrlashga ta'siri.....	1274
<i>Abduhakimova Muslima Bahodir qizi</i>	
Raqamli interpretatsiya: vizual tahlil kompetensiyasini rivojlantirishda immersiv texnologiya va kognitiv yuklanishni optimallashtirish.....	1277
<i>Anvarxo'jayeva Dilinur Otabek qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektidan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish.....	1282
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
Ekologik turizmning tabiatga ma'naviy-estetik munosabatni rivojlantirish imkoniyatlari.....	1286
<i>Aymatov A. Q., Turayeva Dildora Shuhratovna</i>	
O'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	1289
<i>Begmatova Nasiba Safarbayevna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni korreksiyalashning pedagogik texnologiyasi.....	1293
<i>Boxodirova Gulasalxon Ibroximovna</i>	
Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida lotin va yunon terminlarining o'rni.....	1296
<i>Burxonova Guyaxon Gulomovna</i>	
Ta'lim jarayonlarida sinergetik kompetensiyalash orqali integrativ yondashuvni amalga oshirish.....	1300
<i>Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</i>	
Montessori metodikasining tarixi, tamoyillari va ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishdagi o'ziga xos usullari.....	1304
<i>Jo'raqulova Gulruh Murot qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish holati va muammolari.....	1307
<i>Karimov Ravshanbek Rizomatovich</i>	
Methodology for the Integrative Development of Students' Educational and Creative Activities in Teaching Fine Arts.....	1312
<i>Kurbanova Shohsanam Bakhodirjon kizi</i>	
Kurash sport turining jismoniy tarbiya tizimida tutgan o'rni va uning rivojlanish omillari.....	1315
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Akbarova Nasibaxon Abdumalik qizi</i>	
Kurash sport turining texnik-taktik rivojlanishi va uning jismoniy tarbiyadagi pedagogik ahamiyati.....	1319
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Eminjonova Zahro Dilmurodjon qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning intellektual qobiliyatini falsafiy bilimlar asosida rivojlantirish shakllari.....	1323
<i>Mamatqulova Shaxnoza O'ktam qizi</i>	



Using Debate, Role-Play, and Drama as Tools for Developing Oral Skills in English	1326
Menglibekov Reynazar Mukhammetkarim-uli	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida supervayzerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik determinantlari	1329
Mirzayeva Muhayyo Ruziyevna	
Methodology for Developing Patriotic Education in Students Through Ideas of National Heroism	1334
Nomanova Ma'rifat Abdillayevna	
Shaxsda kasbiy tafakkur namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari	1337
Olimova Fotima Botirovna	
Interaktiv ta'lim muhitida talabalarning badiiy-kompozitsion didini shakllantirish pedagogik mexanizmlari (rangtasvir fani misolida)	1341
Omonqulova Dildora Xusniddin qizi	
Triz va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	1348
Oltiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish	1351
Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li	
Bo'lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik ko'nikmasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari (muhandislik ta'lim yo'nalishlari misolida)	1355
Salomov Ilhom Salimovich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS tizimi asosida baholashga o'rgatish	1359
Samidjonova Muxabbat Xoliqjonovna	
"Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ o'qitishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	1362
Sobirova Mashxura Ubaydullayevna	
Sun'iy intellekt va simulyatsion o'yinlardan foydalanib iqtisodiy tafakkurni shakllantirish metodikasi	1365
Sodiqova Nigora Turayevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida virtual texnologiyalar vositasida axborot kompetentligini rivojlantirish tizimi	1368
Suvonqulova Aziza Abdurazzoq qizi	
Rahbarlarning psixologik farovonligi: oila-kasb muvozanati, oilaviy munosabat va kasbiy qoniqishning o'zaro ta'sir mexanizmlari	1371
Teshayev Sobit Sodik o'g'li	
Tibbiy ta'limda refleksiv ko'nikmalar: O'zbekiston va dunyo tajribasi	1374
Toshmatova Moxizatxon Inomidin qizi	
Boshlang'ich tayyorganlik bosqichidagi yosh voleybolchilarning mashg'ulot jarayonini texnik va taktik nazorat qilish metodikasi	1377
Xakimov Saydullo Tulanboyevich	
Kadrlarni boshqarishda strategik va tezkor qarorlar uyg'unligini ta'minlashning tashkiliy-boshqaruv asoslari	1380
D. A. Xodjimatrova	
Jismoniy imkoniyatlari cheklangan yoshlar uchun sport va jismoniy faollikning ahamiyati	1385
Zafar Xudaykulov	
Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish	1388
Yusupova Munisa	
Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	1391
Zokirova Nargiza Akbarjonovna	
Til kompetentligining kognitiv tilshunoslik bilan aloqasi boshlang'ich sinflar misolida	1395
Zokirova Sohiba Muhtoralievna, Madazimova Muxlisa Abdurashid qizi	
Структура и основные характеристики креативности личности студентов педагогических вузов	1398
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
Emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy asoslari	1403
Yarmatov Raxmboy Baxramovich	
Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasini joriy qilish orqali samaradorlikka erishish	1409
Bolibekov Alisher Abdusalomovich	

Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	1412
Djumayeva Dildora Isroilovna	
Kompetentlik tushunchasi: o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari.....	1416
Hayitboyeva Nilufar G'anijonovna	
Tilshunoslikda lingvopoetikaning o'rganilishi	1421
Maxammatova Feruza Olimovna	
O'zbekistonda virtual muzeylar va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari.....	1424
Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Yusupova Mohinur Ulug'bekovna	
Xalqaro ta'lim tajribasi asosida o'quvchilarda tafakkur erkinligini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari	1434
Maxammatova Ma'muraxon Jalilovna	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida talabalarda pedagogik taksonomiya ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	1438
Turdiyeva Shoxidaxon Anvardjanovna	
Tibbiyot texnikumi talabalari klinik tafakkurini shakllantirishning nazariy asoslari: konseptual yondashuvlar va ilmiy talqinlar	1443
Axmedov Marifxan Mamatxanovich	
Valeologik tamoyillarning maktabgacha ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	1448
Begmatova M. T.	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jonli va jonsiz tabiat haqidagi bilimlarni shakllantirish.....	1452
Umbarova Nasiba Xolboy qizi	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda fuqarolik kompetensiyasi dolzarb pedagogik muammo sifatida.....	1456
Djumaqulov Shuxrat Baxodirovich	
Oilada ota-ona va bola munosabatlaridagi pedagogik-psixologik omillar.....	1460
Exsonova Feruza Turdixo'jayevna	
Педагогико-психологические аспекты формирования социокультурной компетентности будущих учителей средствами музейной педагогики	1464
Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi	
Serebral falaj(bsf)ta'xsisli bolalarda respirator-nutq mexanizmlarining buzilishi va korreksion yondashuvlar.....	1469
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	
Milliy harakatli o'yinlar talaba yoshlar tarbiyasida rivojlanishining zamonaviy roli va ahamiyati	1473
Mirzayev Dilshod Khamidovich	
O'smir qizlarda deviant xulqni profilaktika qilish	1477
Mo'minova Dilrabo Murodillayevna	
Arab tilshunosligida ma'no, tuzilma va bayon nazariyasining shakllanishi Sakkokiy qarashlari asosida tahlil.....	1481
Abdullayev Olimjon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar kadrlarining moliyaviy savodxonligini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlar.....	1487
Yuldasheva Munisa Ibrohimovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda ijtimoiy-madaniy kompetensiya	1492
Yormatova Gulnoz Qayumovna	
Developing Imagination and Narrative Thinking in Young Learners Through English Storytelling Activities.....	1497
Madjitova Oyshakhon Mukhammadganiyevna, Anvarova Muslima	
Effectiveness of Online Resources in Teaching Professional Vocabulary to Philology Students	1508
Yusupova Zarrina	
Modern Automotive Lexicon: Formation Processes, Semantic Fields, and Functional Usage	1511
Yuldasheva Mastona Muxubillayevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishda "Atrof va men" metodikasidan foydalanish	1514
Uralova Nurxon Maxadovna	
Chet tili bo'yicha A1, A2, B1 daraja bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar (lingvistik kompetensiya) tahlili	1519
Tojiyeva Anora Baxtiyorovna	



Гендерных различия прокрастинации.....	1526
Рахмонова Гузал Жамшидовна	
A System of Software that Develops the Intellectual Potential of Students in Teaching Mathematics	1529
Toxirova Malika Muzaffar qizi	
O'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	1535
Maxkamova Muborak Yusupovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	1543
Raximova Zilola Alimbayevna	
Ona tili darsliklari ta'limi mazmunini lingvistik ekspertiza qilish metodikasi	1547
Majidova Aziza	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari.....	1551
Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna	
Oliy texnika ta'limida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalarini o'qitishning innovatsion metodik asoslari	1554
Numonjonov Shoxzodbek Dilshodjon o'g'li	
STEAM tamoyillari asosida rivojlantiruvchi muhit yaratish	1558
Umarova Muqaddasxon	
Autistik spektr buzilishi: DSM-5 va ICD-11 tasniflari, tadqiqotlar va jamiyatdagi ahamiyati.....	1562
Tuxtayeva Maxfirat	
STEAM texnologiyasi asosida xorijiy til (ingliz tili) o'rgatish.....	1566
Teshaboyeva Zumradxon	
Cultivating Social-Emotional Learning (SEL) in Classrooms.....	1569
Choriyev Ilxom Kenjayevich	
Kutubxona-axborot muassasalarida kadrlar siyosatini amalga oshirishning huquqiy asoslari	1573
Mamatkabilov A. X.	
Sun'iy intellekt – speechace dasturi yordamida o'quvchilarning ingliz tilida talaffuz malakasini oshirish	1578
Nabiyeva Shahnoza Alijon qizi	
Tarixiy obidalar asosida tasviriy san'at talabalari ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	1583
Qurvanboyeva Diyora Muzaffar qizi	
STEAM ta'limining O'zbekistondagi rivojlanish istiqbollari.....	1588
Abdukarimova E'zoza Fazliddin qizi, Bayjigitova Dilorom Baxtiyarovna	
Oliy ta'lim tizimida jarayonlarning boshqarishning innovatsion texnologiyalari	1592
Uzaqov Nomozaali Hamdamovich	
Kimyoni o'qitish jarayonida virtual laboratoriyadan foydalanish	1596
Murodova Sitorabonu Bahodir qizi	
Raqamli platformalardan foydalanish asosida bo'lajak o'qituvchilarning media ko'nikmalarini shakllantirish	1599
Safarov Feruz Saminjon o'g'li	
Qoraqalpoq xalq an'analari vositasida maktab o'quvchilarini an'anaviy tarbiyalash (Bo'zatov tumani maktablari misolida).....	1603
Dosjonova Nilufar Rustam qizi	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	1607
Abira Bakhramova	
Kichik maktab yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxslararo munosabatini korreksiyalashda ertak terapiyasidan foydalanish	1613
Nig'matova Nodirabegim Lutfillo qizi	
Talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonlarida bir qator tarkibiy komponentlarning uyg'un rivoji.....	1617
Mirzaxojayeva Dilrabo To'liqin qizi	
O'quv mashg'ulot guruhida musoboqa oldi mashg'ulotlar tuzilishi (badminton misolida).....	1621
Ismoilova Fotima Ismoil qizi	
Alohida ajratilgan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish davomida ularning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirish zaruriy omil ekanligi to'g'risida.....	1626
Qozoqboyeva Xanifaxon Shavkatjon qizi	

Methodological Foundations for Shaping the Creative Activity of Younger Pupils in Solving Mathematical Problems	1630
Dzhurakulova Adolat Khalmuratovna	
Jadidlar merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy dunyoqarashini faollashtirish metodini takomillashtirish	1638
Bekchanova Ozoda Otajon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quv motivatsiyasini rivojlantirish.....	1641
Alibayeva Dildora Raxmatilla qizi	
Maktabgacha ta'limda steam texnologiyasini joriy qilish orqali samaradorlikka erishish.....	1644
Bolibekov Alisher Abdusalomovich	
Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	1647
Djumayeva Dildora Isroilovna	
Kompetentlik tushunchasi: o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatleri.....	1650
Hayitboyeva Nilufar G'anijonovna	
Emotional Burnout of Teachers as a Factor Influencing Professional Activities	1655
Kamilova Nadira Gayratovna, Abdullaeva Nelufar Karimjanovna	
Методика развития профессионально-речевых компетенций будущих специалистов	1663
Комилова Мукаррам Кобилжоновна	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari va samarali metodlari	1666
Koziyeva Fazilat	
Tilshunoslikda lingvopoetikaning o'rganilishi	1671
Maxammatova Feruza Olimovna	
Deviant xulq-atvor shakllanishining nazariy va eksperimental tadqiqotlar tahlili	1674
Xolmurotova Shoxista Mirzaliyevna	
IJF yangi qoidalarining dzyudochilar texnik arsenaliga ta'siri: 2020 va 2024-yilgi olimpiadalar qiyosiy tahlili.....	1677
A. T. Saydullayev	
Системный подход к внедрению мультилингвальных методов: разработка структурно-функциональной модели в педагогическом вузе	1681
Жумамуратова Юлдуз Бахтияровна	



CHET TILI BO'YICHA A1, A2, B1 DARAJA BITIRUVCHILARI TAYYORGARLIGI DARAJASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR (LINGVISTIK KOMPETENSIYA) TAHLILI

Tojiyeva Anora Baxtiyorovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
2-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga chet tili amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarda o'rgatiladi. Mazkur maqolada chet tili o'qitishning amaliy maqsadiga erishish yo'lida umumta'lim maktablari kursida chet tilini o'rgatishning yakuniy amaliy maqsadi – tinglab tushunish va o'qish, ya'ni chet tilda tinglab va o'qib axborot olish uchun belgilangan talablar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: chet tili, bitiruvchilar tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar, lingvistik kompetensiya, amaliy maqsad, nutqiy qiyinchilik.

Abstract: In secondary schools, a foreign language is taught for practical, general educational, educational, and developmental purposes. This article analyzes the final practical goal of teaching a foreign language in secondary school—listening comprehension and reading—that is, the requirements for receiving information through listening and reading in a foreign language in order to achieve the practical objectives of foreign language instruction.

Key words: foreign language, requirements for the level of graduates' preparation, linguistic competence, practical goal, speech difficulty.

Аннотация: В средних общеобразовательных школах иностранный язык преподаётся в практических, общеобразовательных, воспитательных и развивающих целях. В статье анализируется конечная практическая цель обучения иностранному языку в средней школе – аудирование и чтение, то есть требования к восприятию информации посредством аудирования и чтения на иностранном языке для достижения практической цели обучения иностранному языку.

Ключевые слова: иностранный язык, требования к уровню подготовки выпускников, языковая компетенция, практическая цель, речевая трудность.

KIRISH

Ta'lim maqsadi ijtimoiy-pedagogik va lingvodidaktik tushuncha sifatida chet tilini o'qitishga tatbiqan quyidagicha ta'riflanishi mumkin: umumta'limiy yo'nalishdagi o'quv predmetlaridan bo'lmish chet tilini o'rganishga jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasi shaklidagi ta'lim mazmunini belgilash, o'qitish jarayonini tashkil etish va muayyan natijalarga erishishni oldindan aniqlash.

Maktabda chet til nima uchun o'rganiladi, degan savolga javob tariqasida qo'llanadigan termin-tushunchadir. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga chet tili amaliy maqsad, umumta'limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad va rivojlantiruvchi maqsadda o'rgatiladi.

Chet tilini o'qitishning amaliy maqsadiga erishish yo'lida umumta'lim maktabi kursida chet tilini o'rgatishning yakuniy amaliy maqsadi – tinglab tushunish va o'qish, ya'ni chet tilda tinglab va o'qib axborot olishdir.

Oraliq amaliy maqsad turlicha talqin etiladi:

- I sinfda tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad hisoblanadi.
- II–IV sinflarda ham tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad bo'lib, o'qish va yozuv og'zaki nutqda o'rganilgan til materialini takrorlash va mustahkamlash vositasi hisoblanadi;
- V–VI sinflarda nutq faoliyati turlaridan tinglab tushunish, gapirish va o'qish – oraliq amaliy maqsad, yozuv esa amaliy vosita sanaladi;



- VII–XI sinflarda tinglab tushunish va o'qish – amaliy maqsad, gapirish va yozuv esa vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Chet tilini o'qitishning amaliy maqsadiga erishish yo'lida nutq faoliyatining turlari uchun maxsus mavzular va til materiali tanlanadi, o'quv vaqtining asosiy qismi ularni o'rganishga bag'ishlanadi, ya'ni mashqlarning aksariyati ushbu nutq faoliyati tur(lar)ida bajariladi. Amaliy maqsadga lingvistik, kommunikativ va pragmatik kompetensiyalarni egallash orqali erishiladi. Kompetensiya, ma'lumki, bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy belgilar majmuidan iborat bo'lib, uning tarkibiga kichik kompetensiyalar kiradi.

Lingvistik kompetensiyada lisoniy hodisalarning nutqda qo'llanilishi nazarga olinadi.

Kommunikativ kompetensiyada muloqot vaziyati, maqsadi va muloqotdoshlar vazifasiga mos tarzda fikr bildirish olish ko'zda tutiladi.

Pragmatik kompetensiya kommunikativ vaziyatda o'zini tuta bilish (masalan, takroran so'rash, nutqiy va lisoniy murakkablik tug'ilganda undan chiqarib olish) layoqatiga taalluqlidir.

Pragmatik kompetensiya tarkibidagi diskursiv kompetensiya og'zaki va yozma nutqdagi izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi. Amaliy maqsadning ro'yobga chiqishida hosil qilingan barcha kompetensiyalarning uzviy yaxlitligi (sintezi) ta'minlanadi.

Amaliy maqsadning ro'yobga chiqishida o'quvchi ta'lim oladi, tarbiyalanadi va uning shaxsi rivojlanadi. Chet tilini o'qitishning umumta'limiy maqsadi ro'yobga chiqqanda, o'rganilayotgan til vositasi orqali foydali hayotiy axborot va til haqidagi yangi, sodda ma'lumotlarni o'zlashtirish ko'zda tutiladi. O'quvchining umumiy saviyasini ko'tarish, o'rganilayotgan til va madaniyat haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'lish, muloqot madaniyatini yuksaltirish, aqliy mehnat usullarini qo'llash hamda fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabi jihatlarga erishiladi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda asosan lingvistik, strategik (kompensator), o'quv-kognitiv va diskursiv layoqatlar takomillashadi. Boshqa fanlar qatorida chet tili ham majburiy o'quv predmeti maqomida umumiy ta'lim berish va olish jarayoniga o'z hissasini qo'shadi. Umumta'lim obyekti uchta tarkibiy qismdan iborat: til hodisasi, unga oid tushuncha yoki sodda qoida hamda, eng muhimi, chet tildagi diskurs mazmuni.

Chet tilini o'qitishning tarbiyaviy maqsadi o'quvchilarga g'oyaviy tarbiya berish, aqliy mehnat malakalarini singdirish va ularning bilish faolligini oshirishdan iborat bo'lib, mazkur maqsadning mohiyatini tashkil etadi. Darsdan tashqari o'quv tadbirlarining ham tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Chet tilini o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi didaktikadagi rivojlantiruvchi ta'lim mazmuni bilan hamohang bo'lib, o'quvchi shaxsining aqliy, hissiy va motivatsion jihatlari rivojlantirishni ifodalaydi. O'quvchi intellektual va ma'naviy ozuqa oladi, nutqiy muloqot jarayonida o'z hissiyotlarini sinab ko'radi, muloqotdoshlar (o'quvchi, muallim, diktator va boshqalar) fikrini anglash va o'z fikrini bayon etish orqali uning shaxsi kamol topib boradi.

Rivojlantiruvchi maqsadga faqat nutqiy amallar orqali erishiladi. Uning umumta'limiy maqsaddan jiddiy farqi shundaki, o'quv ma'lumotlarini olish jarayoni ta'lim bilan fikran bog'lanadi, ma'lumot mazmuni esa turli kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim, jumladan, chet tilini o'rganish shaxs rivojlanishida alohida o'rin egallaydi.

Til psixologik, kommunikativ, funksional va madaniy hodisa bo'lganligi sababli bilish jarayoni uchun o'ta ahamiyatlidir, chunki u bilmaslikdan bilishga eltuvchi omil hisoblanadi. Chet tilda o'quvchi ikki turdagi bilimni egallaydi: birinchisi va asosiysi – nutqiy jarayonda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan algoritmik qoidalar, ikkinchisi esa ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan va o'quvchi hayoti davomida foydali bo'ladigan ma'lumotlardir. Madaniyatlararo muloqot o'zga xalq mentalitetiga xos belgilar va urf-odatlarini anglashga xizmat qiladi. Bunda boshqalarning turmush tarzini targ'ib qilish emas, balki chet til sohibi nigohi orqali dunyo manzarasiga yangicha qarash va oqibatda o'z madaniyatini chuqurroq his etishga o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada umumbashariy va milliy qadriyatlar uyg'unlashuvi sodir bo'ladi.

Chet tilda muloqot qilish to'rt asosiy nutq faoliyati turi bo'yicha malakalarni shakllantirishni anglatadi. Nutq faoliyatining to'rt turi – tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv malakalari o'zaro bog'langan holda rivojlantirib boriladi. Bu jarayon o'qish va yozish, o'qish va tinglash, o'qish va gapirish, tinglash va o'qish, tinglash va yozish hamda tinglash va gapirish kabi mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Tinglab tushunish. Nutqni tinglab tushunish deganda so'zlovchining nutqini bevosita yoki texnik vositalar yordamida eshitib idrok etish va fahmlash nazarda tutiladi. Boshqacha aytganda, tinglab tushunish o'zgalar nutqini (jonli tarzda yoki mexanik yozuvdagi nutqni) idrok etish hamda uning mazmunini fahmlab yetish ma'nosini ifodalaydi. Yangi til materiali o'quvchilarga, odatda, o'qish yoki tinglash orqali tanishtiriladi. Tinglab tushunish talaffuz va ohangni o'zlashtirishga ham xizmat qiladi. Tinglab tushunish uch bosqichli faoliyat bo'lib, unda umumiy eshituv idroki (akustik appersepsiya), so'zlarning tovush tomonini (fonematik) farqlash va mohiyatini anglash orqali nutq mazmuni idrok etiladi, bilib olinadi va tushuniladi. Eshitish sezgisi va analizatori orqali axborot olishning asosiy manbalari sifatida o'qituvchi nutqi, audio-video vositalar – magnitafon yozuvi, radio eshittirishlar, ovozli diafilmlar, kino va video filmlar (yoki ularning parchalari), shuningdek, televizion ko'rsatuvlar tavsiya etiladi.



Tinglab tushunishni amalga oshirish uchun uch omil nazarda tutiladi: tinglovchining o'ziga bog'liq omillar (eshitish ko'nikmasining rivojlanganligi, xotira imkoniyatlari va matnni diqqat bilan tinglab mazmunini tushunish darajasi), tinglash paytidagi shart-sharoitlar (nutq tezligi, til materiali hajmi va shakli, so'zlanayotgan nutqning davomiyligi) hamda qo'llanilgan materialning lingvistik jihatlar (tinglovchining til tajribasiga mos kelish-kelmasligi). Shu bois tinglab tushunishga beriladigan matnlar, odatda, notanish bo'lib, o'quvchilar egallagan til materiallarini o'z ichiga oladi.

Gapirish. Gapirish nutq faoliyati turlaridan biri bo'lib, fikrni og'zaki bayon etishni anglatadi. Gapirish fikr va his-tuyg'ularni ifoda etish maqsadida muayyan tildagi leksik, grammatik va fonetik vositalarni qo'llashdan iborat bo'lib, chet tilini o'rganishning muhim amaliy maqsadi hisoblanadi. Gapirish o'quvchilarga o'z fikr va his-tuyg'ularini ifoda etish, qiziqishlari hamda hayotiy faoliyati haqida suhbatlashish va ularni boshqalar fikri bilan taqqoslash imkonini beradi. Fikrni og'zaki ifodalash monolog (yakka nutq) va dialog (juft nutq) shakllarida amalga oshiriladi. Monolog bir kishining nutqi bo'lib, unda ketma-ket keladigan jumlar mantiqan bog'lanadi va nutqning ohangi hamda mazmuni qo'yilgan maqsad sari yo'naltiriladi. Dialog esa ikki yoki undan ortiq shaxs o'rtasida axborot almashish jarayonini ifodalaydi va unda nutqiy vaziyatga mos dialogik birliklar, stimuly va reaksiya jumalari almashinuvi, shuningdek, suhbat mazmunining izchilligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qish. O'qish o'quvchilarning axborot olishlari uchun muhim nutq faoliyati turi bo'lib, yozma nutqni idrok etish va anglashga asoslangan reseptiv faoliyat hisoblanadi. O'qishda axborot ko'rish sezgisi orqali qabul qilinadi. Matndagi axborotni o'zlashtirish ovoz chiqarmay o'qish orqali, axborotni o'zgalarga yetkazish esa ovoz chiqarib o'qish orqali amalga oshiriladi. Ovoz chiqarmay o'qish jarayonida ham ichki nutq sodir bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktabini bitiruvchi o'quvchilar murakkab bo'lmagan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ommabop va badiiy matnlarni o'qiy olishlari zarur. O'qish malakalari shakllangan lisoniy ko'nikmalar asosida rivojlantiriladi va matnlar ma'lumot olish, muloqot qilish hamda leksik-grammatik materiallarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yozuv. Chet tilini o'rganishda yozuv deganda o'rganilayotgan til vositalari – grafemalar hamda yozma shakldagi leksik va grammatik birliklarning qo'llanishi, shuningdek, yozma shaklda fikr bayon etish tushuniladi. Yozuv grammatik va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozma fikrni ifodalash jarayonidir. Axborotni yozma shaklda bayon etish o'z fikrini yozish yoki aytib turilgan boshqa shaxs nutqini yozuvda ifodalash orqali amalga oshiriladi. Har ikkala holatda ham yozma matn, ya'ni diskurs yaratiladi. Yozish texnikasi grafika, kalligrafiya va orfografiyani o'z ichiga oladi. Grafika o'qish va yozish texnikasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, imlo so'z va gaplarni yozish qoidalarini majmuasini ifodalaydi. Husnixat esa harf va harf birikmalarini yozuvda to'g'ri tasvirlashni nazarda tutadi. Yozuv malakasi husnixat, imlo, tuzish hamda yozuvning leksik va grammatik ko'nikmalaridan tashkil topadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Chet tillarini o'qitishda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar masalasi o'zbek metodist olimlari tomonidan lingvistik va kompetensiyaviy yondashuv asosida keng tadqiq etilgan. Jumladan, J.J. Jalolov chet tilini o'qitish metodikasida ta'lim maqsadlari, nutq faoliyati turlari va til kompetensiyalarining o'zaro uzviy bog'liqligini asoslab beradi. Olimning yondashuvida tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirish umumta'lim maktablari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini belgilovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi.

Lingvistik kompetensiya tushunchasining mazmuni va tuzilmasi Z.K. Ismoilovning ilmiy ishlarida CEFR talablari asosida atroflicha yoritilgan. Tadqiqotlarda lingvistik kompetensiya fonetik, leksik va grammatik tarkibiy qismlardan iborat yaxlit tizim sifatida qaralib, A1–B1 darajalarida bu komponentlarning egallanish ketma-ketligi va funksional ahamiyati ochib berilgan. Muallif lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda kommunikativ vaziyatlarga mos til materialini tanlash va uni amaliy mashqlar orqali mustahkamlash zarurligini ilmiy asoslaydi.

Shuningdek, B.A. Xasanov va M.M. Mahmudov tadqiqotlarida chet tilini o'qitishda kompetentlik yondashuvi hamda grammatik kompetensiyani shakllantirish muammolari tahlil qilingan. Xasanov chet til ta'limida kommunikativ va kompetentlik yondashuvlarining o'zaro uyg'unligini ta'kidlab, lingvistik kompetensiyani amaliy nutq faoliyati bilan bog'lash muhimligini ko'rsatadi. Mahmudov esa A1–B1 darajalarida grammatik kompetensiyani shakllantirish jarayonida darajaviy talablarning aniq belgilanishi va ularning o'quv mazmuniga moslashtirilishi zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda chet tili bo'yicha A1, A2 va B1 daraja bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablarni tahlil qilishda hujjatlarni o'rganish va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot uchun asosiy ma'lumotlar umumta'lim maktablari uchun belgilangan davlat ta'lim standartlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda chet tillarni o'qitish metodikasiga oid ilmiy manbalardan olindi. Xususan, lingvistik kompetensiyaning tarkibiy qismlari bo'yicha belgilangan talablar tizimli ravishda yig'ilib, ularning darajalar kesimidagi mazmuni



aniqlashtirildi. Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida tavsifiy tahlil metodi qo'llanilib, A1, A2 va B1 darajalarida fonetik, leksik va grammatik kompetensiyalarga qo'yiladigan talablarning izchilligi va murakkablashuv darajasi o'rganildi. Shuningdek, darajalararo uzviylikni aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil amalga oshirilib, har bir bosqichda shakllantirilishi lozim bo'lgan lingvistik bilim va ko'nikmalar o'zaro solishtirildi. Olingan natijalarni umumlashtirishda mantiqiy tahlil usulidan foydalanilib, mavjud talablarning amaliy nutq faoliyatini rivojlantirishga qanchalik xizmat qilishi baholandi. Tadqiqot jarayonida to'plangan ma'lumotlar tizimlashtirilib, ularning ilmiy xulosalar chiqarishdagi ahamiyati asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

CHET TILI BO'YICHA A1 DARAJA BITIRUVCHILARI TAYYORGARLIGI DARAJASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR LINGVISTIK KOMPETENSIYA	
I. NUTQIY KOMPETENSIYA	
Tinglab tushunish	
CHT.A1.N.T.1	sodda yo'riqnomalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi
CHT.A1.N.T.2	sodda savollar va gaplarni tushuna oladi
CHT.A1.N.T.3	sodda she'rlar, hikoyalar, qo'shiqlarni tushuna oladi; tanish kontekstlarda sodda autentik nutqni tushuna oladi
Gapirish / Suhbatda ishtirok etish	
CHT.A1.N.G.1	ma'lumot so'ray va ma'lumot bera oladi
CHT.A1.N.G.2	yordam so'rab murojaat qila oladi (dialog)
CHT.A1.N.G.3	sodda savol-javob qila oladi (dialog);
CHT.A1.N.G.4	yashash joyi, oila, do'stlari va tanishlari haqida gapira oladi (monolog);
CHT.A1.N.G.5	o'zini tanishtira oladi, yoqtirgan va yoqtirmagan narsalari haqida gapira oladi (monolog)
CHT.A1.N.G.6	tanish mavzuda juda qisqa taqdimotlar qila oladi (monolog)
O'qib tushunish	
CHT.A1.N.O'.1	tanish mavzularda ma'lumot beruvchi matnlarning asosiy mazmunini tushuna oladi
CHT.A1.N.O'.2	joy yoki insonlar tasvirlangan qishacha matnni (zarur hollarda ko'rgazmalardan foydalangan holda) tushuna oladi;
CHT.A1.N.O'.3	joy yoki insonlar tasvirlangan qishacha sodda xabarlarni (masalan, oddiy xatlar, elektron xatlar) tushuna oladi;
CHT.A1.N.O'.4	sodda yozma yo'riqnoma yoki ko'rsatmalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi.
Yozish	
CHT.A1.N.Y.1	shaxsiy sodda xabarlarni (tabriklar, qaydlar, elektron xatlar) yoza oladi;
CHT.A1.N.Y.2	CHT.A1.N.Y.2 shaxsiy ma'lumotlar (ism-sharif, yashash manzili va hokazo) bilan sodda anketani to'ldira oladi;
CHT.A1.N.Y.3	sodda she'r va hikoyalar yoza oladi.
II. TIL KOMPETENSIYASI	
Fonetika kompetensiya	
CHT.A1.T.F.1	chet tilining barcha tovushlarini aniq talaffuz eta oladi farqlay oladi
CHT.A1.T.F.2	so'z va gap urg'usini qo'ya oladi
CHT.A1.T.F.3	kommunikativ vaziyatlarda intonatsiya modellarini farhlay biladi va ulardan foydalana oladi.
Leksik kompetensiya	
CHT.A1.T.L.1	o'zlashtirilgan leksik vositalarni kontekst (matn)da qo'llay oladi
CHT.A1.T.L.2	mavzuga oid sodda so'zlarni kommunikativ vaziyatlarda qo'llay oladi
CHT.A1.T.L.3	ba'zi baynalmilal so'zlar va turdosh so'zlarni farqlay oladi hamda ularni qo'llay oladi.
Grammatik kompetensiya	
CHT.A1.T.G.1	kommunikativ vaziyatlarda sodda grammatik va sintaktik tuzilmalarni qo'llay oladi
CHT.A1.T.G.2	so'z va so'z birikmalarini "va" bog'lovchisi bilan bog'lay oladi
CHT.A1.T.G.3	fe'l shakllari va sodda payt ravishdoshlaridan foydalangan holda gaplarni to'g'ri bayon qiladi, hikoyalar hamda voqealarni to'g'ri ketma-ketlikda ta'riflay oladi.



CHET TILI BO'YICHA A2 DARAJA BITIRUVCHILARI TAYYORGARLIGI DARAJASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

I. NUTQIY KOMPETENSIYA

Tinglab tushunish

CHT.A2.N.T.1	O'z ehtiyojlari va qiziqishlariga bevosita bog'liq bo'lgan gap va iboralarni tushuna oladi
CHT.A2.N.T.2	Biror yerga borish bo'yicha sodda yo'riqnomalarni tushuna oladi
CHT.A2.N.T.3	Sodda xabarlar va e'lonlardagi asosiy ma'holni tushuna oladi.

Gapirish (Dialog)

CHT.A2.N.G.1	To'g'ri ma'lumot ola biladi va bera oladi
CHT.A2.N.G.2	Salomlasha oladi va murojaat qila oladi; taklif, tavsiya qila oladi va taklifga javob bera oladi; uzr so'rashning sodda kundalik shakllarini ishlata oladi
CHT.A2.N.G.3	Qisqa muloqotda ishtirok eta oladi
CHT.A2.N.G.4	Sodda iboralardan foydalanib tanish mavzuda o'z fikrini ifoda eta oladi

Gapirish (Monolog)

CHT.A2.N.G.5	Sodda yumushlar (masalan, chiptalar sotib olish, xarid qilish, oshxonada taom buyura olish)ni amalga oshira oladi
CHT.A2.N.G.5	Tushunmaganligini bildiradi.
CHT.A2.N.G.6	Odamlar, yashash yoki ish joyi sharoitlari, kundalik ishlar, yoqtirgan/ yoqtirmagan narsalar va boshqalarni sodda qilib tasvirlay oladi yoki taqdimot qila oladi
CHT.A2.N.G.7.	Sodda iboralar bilan odamlar, joylar va buyumlarni tasvirlay oladi.

O'qib tushunish

CHT.A2.N.O'.1	Juda qisqa sodda autentik va yarim-autentik matnlarni tushuna oladi
CHT.A2.N.O'.2	Qisqa shaxsiy sodda xabarlar va xatlarni tushuna oladi
CHT.A2.N.O'.3	Jamoat joylaridagi umumiy belgilar va e'lonlarni tushuna oladi
CHT.A2.N.O'.4	Sodda yozma ko'rsatmalarni tushuna oladi
CHT.A2.N.O'.5	Ro'yxatlar, veb saytlar, qo'llanmalar va boshqalardagi maxsus ma'lumotlarni qidirib topa oladi.

Yozish

CHT.A2.N.Y.1.	Sodda, qisqa xat va xabarlar yoza oladi (masalan, minnatdorchilik bildirish, uzr so'rash xatlari)
CHT.A2.N.Y.2	Anketani turli shaxsiy ma'lumotlar bilan to'ldira oladi (ism-sharifi, manzili, telefon raqami, millati, otasi bilan ulanish haqida ma'lumotlar va hokazo);
CHT.A2.N.Y.3	Kundalik turmush haqida yoza oladi
CHT.A2.N.Y.4	Sodda she'rlar yoza oladi.

II TIL KOMPETENSIYASI

Fonetik kompetensiya

CHT.A2.T.F.1	Chet tilining barcha tovushlarini aniq talaffuz qila oladi
CHT.A2.T.F.2.	So'z va gap urg'usidan to'g'ri foydalana oladi
CHT.A2.T.F.3	Kommunikativ vaziyatlarda intonatsiya modellaridan to'g'ri foydalana oladi va ularni farqlay oladi.

Leksik kompetensiya

CHT.A2.T.L.1	O'zlashtirilgan leksik birliklarni kontekstda qo'llay oladi
CHT.A2.T.L.2	Mavzuga oid sodda so'zlarni kommunikativ vaziyatlarda qo'llay oladi slar va suffikslar
CHT.A2.T.L.3	Ba'zi baynalmilal va o'zlashgan so'zlarni tanib oladi va ularni qo'llay oladi
CHT.A2.T.L.4	So'z yasashning turli yo'llarini farqlay oladi (qo'shma so'zlar, prefikslar va suffikslar).

Grammatik kompetensiya

CHT.A2.T.G.1.	Kommunikativ vaziyatlarda asosiy grammatik va sintaktik tuzilmalarni qo'llay oladi
CHT.A2.T.G.2	So'z birikmalari va qo'shma gaplarni "ammo", "va", "chunki" kabi sodda bog'lovchilar bilan bog'ay oladi
CHT.A2.T.G.3	Fe'l shakllari va sodda payt ravishlaridan foydalangan holda bayon qila oladi va hikoyalarni gapirib berishda voqealarni to'g'ri ketma-ketlikda ifodalay oladi.



CHET TILI BO'YICHA B1 DARAJA BITIRUVCHILARI TAYYORGARLIGI DARAJASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR	
LINGVISTIK KOMPETENSIYA	
I. NUTQIY KOMPETENSIYA	
Tinglab tushunish	
CHT.B1.N.T.1	Ommabop tanish mavzulardagi aniq normativ nutqning asosiy ma'nolarini tushuna oladi
CHT.B1.N.T.2	Kasb-hunarga oid mavzulardagi aniq normativ nutqning asosiy ma'nolarini tushuna oladi
CHT.B1.N.T.3	Batafsil yozilgan yo'riqnomalar yoki ko'rsatmlarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi
CHT.B1.N.T.4	Shaxsiy qiziqish yoki kasbga oid kundalik voqealar va dasturlar haqidagi teleradio yangililari sekin, biroq ravon gapirilganda ularning asosiy mazmuni va g'oyasini tushuna oladi
CHT.B1.N.T.5	Tanish mavzudagi muhokamaga kirisha oladi.
Gapirish (Dialog)	
CHT.B1.N.G.1;	Sayohat mobaynida yoki ish joyida vujudga kelishi mumkin bo'lgan aksariyat vaziyatlarda muloqot qila oladi
CHT.B1.N.G.2	Tanish, shaxsiy qiziqishlarga oid yoki kundalik mavzularda tayyorgarliksiz suhbatga kirisha oladi
CHT.B1.N.G.3.	Ham ommabop, ham kasb-hunarga oid masalalar bo'yicha ma'lumot oladi va bera oladi hamda fikr almasha oladi
CHT.B1.N.G.4.	Keng miqyosdagi his-tuyg'ular va hissiyotlar, masalan, g'amginlik, baxtiyorlik, dilxiralik, mamnuniyat, hayratlanishni ifoda qila oladi va ularga javob qaytara oladi
CHT.B1.N.G.5	Mavzu bo'yicha suhbat yoki muhokamada qatnasha oladi
CHT.B1.N.G.6.	Sayohat, xarid, bank va boshqa umumiy kundalik yoki mehnat faoliyatiga oid vaziyatlardagi yumushlarni samarali uddalay oladi
CHT.B1.N.G.7	Ixtisoslikka oid yoki boshqa tanish mavzularda qisqa, mantiqiy fikrlar bilan bog'langan taqdimot qila oladi
Gapirish (Monolog)	
CHT.B1.N.G.1	Sayohat mobaynida yoki ish joyida vujudga kelishi mumkin bo'lgan aksariyat vaziyatlarda muloqot qila oladi
CHT.B1.N.G.2	Tanish, shaxsiy qiziqishlarga oid yoki kundalik mavzularda tayyorgarliksiz suhbatga kirisha oladi
CHT.B1.N.G.3	Ham ommabop, ham kasb-hunarga oid masalalar bo'yicha ma'lumot oladi va bera oladi hamda fikr almasha oladi
CHT.B1.N.G.4	Keng miqyosdagi his-tuyg'ular va hissiyotlar, masalan, g'amginlik, baxtiyorlik, dilxiralik, mamnuniyat, hayratlanishni ifoda qila oladi va ularga javob qaytara oladi
CHT.B1.N.G.5	Mavzu bo'yicha suhbat yoki muhokamada qatnasha oladi
O'qib tushunish	
CHT.B1.N.O'.1	Ixtisoslik sohalarida faktlarga asoslangan murakkab bo'lmagan matnlarni to'liq tushuna oladi
CHT.B1.N.O'.2	Kundalik va asosiy kasb-hunarga oid hujjatlardagi, masalan, xabarlar, qisqa rasmiy hujjatlardagi tegishli ma'lumotlarni topa oladi va tushuna oladi
CHT.B1.N.O'.3	Gazeta va Internet matnlari va boshqa manbalardagi tegishli fikrlarni tushuna oladi
CHT.B1.N.O'.4	Asbob-uskunalar va qurilmalarni ishlatish va ekspluatatsiya kilish bo'yicha yozma yo'riqnomalarni tushunib, ularga amal qila oladi
CHT.B1.N.O'.5	Ommaviy matnlarni muhokama qilishni nazarda tutgan holda asosiy fikrlarni tushuna oladi.
Yozish	
CHT.B1.N.Y.1	Shaxsiy va kasb-hunarga oid kontekstlarda qaydlar va xabarlar yozib, ularning shoshilinchligi, muhimligi yoki zarurligini ifodalay oladi
CHT.B1.N.Y.2	Normativ formatga asoslangan qisqa kasb-hunarga oid hisobotlar yoza oladi
CHT.B1.N.Y.3	Mehnat amaliyoti tajribasiga oid oddiy hisobotlarni yoza oladi
CHT.B1.N.Y.4	Ish joyi bilan bog'liq masalalar va vujudga keladigan vaziyatlar bo'yicha oddiy hisobotlar yoza oladi
CHT.B1.N.Y.5	Rezyume va tavsiya xatlarini yoza oladi.
II. TIL KOMPETENSIYASI	
Fonetik kompetensiya	
CHT.B1.T.F.1	Taqdimotlar va muhokamalarda ta'kidlash maqsadida urg'u va intonatsiyadan to'g'ri foydalan oladi.



Leksik kompetensiya	
CHT.B1.T.L.1	Kasb-hunarga oid lug'at boyligidan faol foydalana oladi
CHT.B1.T.L.2	O'z so'zlarida keng tarqalgan xalqaro va turdosh so'zlarni taniydi va ishlata oladi
CHT.B1.T.L.3	O'z ixtisosligi doirasi va undan tashqarida so'z tuzilishi elementlari (qo'shma so'zlar, prefikslar, suffikslar, so'z o'zagi) ni taniydi va tushuna oladi.
Grammatik kompetensiya	
CHT.B1.T.G.1	Kommunikativ maqsadlarda zarur bo'ladigan chet tili grammati- kasining barcha asosiy elementlarini taniy oladi va ulardan to'g'ri foydalana oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida, jumladan, chet tilini o'rganishda me'yor darajasidagi lisoniy va nutqiy qiyinchiliklarni yengib o'tish o'quvchi tafakkuri hamda his-tuyg'ularining izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur jarayon o'quvchilarda chet tilda muloqot qilishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, lisoniy va nutqiy qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich bartaraf etish orqali o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasi mustahkamlanib, chet tilda axborotni tinglab tushunish va o'qish orqali qabul qilish malakalari takomillashadi. Natijada chet tilini o'rganish jarayoni nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallash vositasi, balki o'quvchi shaxsining intellektual va hissiy kamolotini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 2021-yil 20-sentyabr. Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish va milliy sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (VM-573-son). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. Jalolov J.J. 2012-yil. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.
3. Ismoilova Z.K. 2018-yil. Lingvistik kompetensiya tushunchasining CEFR talablariga muvofiq talqini. Til va adabiyot ta'limi, (3), 45–48.
4. Xasanov B.A. 2020-yil. Til o'rgatishning kommunikativ va kompetentlik yondashuvlari. Toshkent: Fan.
5. Mahmudov M.M. 2019-yil. Chet tillarni o'qitishda A1–B1 darajalarida grammatik kompetensiyani shakllantirish muammolari. Xorijiy filologiya masalalari, (1), 78–83.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.